

**AHMAD LUTFI QOZONCHINING «O'GAY ONA» ASARI
KOMPOZITSIYASI VA OBRAZLAR TIZMI**

Xoshimova Husnida

*Temiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti
521-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada « O'gay ona » asarini nafaqat kitobxon sifatida, balki adabiyotshunos nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish ko'zda tutilgan. Ya'ni maqolada, avvalo, «Ahmad Lutfi Qozonchi qayerda voyaga yetgan, uning o'zi kim ?» kabi savollarga, qolaversa, asarning kompozitsiyasi, undagi obrazlar, personajlar tizimi, konflikt, tugun, voqaealar rivoji, asarning yechimi hamda badiiy g'oyasi haqida baholi qudrat ma'lumot berishga harakat qilaman.

Kalit so'zlar: Ahmad Lutfi Qozonchi, kompozitsiya, ekspozitsiya, peyzaj, obraz, konflikt, tugun, voqaealar rivoji, badiiy g'oya.

Annotation: This article analyzes the work "Stepmother" not only as a reader, but also from the point of view of a literary critic. That is, in the article, first of all, "Where did Ahmad Lutfi Kazanchi grow up, who is he?" In addition, I will try to give valuable information about the composition of the work, its images, system of characters, conflict, knot, development of events, solution and artistic idea of the work.

Key words: Ahmad Lutfi Kazanchi, composition, exposition, landscape, image, conflict, node, development of events, artistic idea.

Buyuk turk yozuvchisi Ahmad Lutfi Qozonchi 1936-yil 1-avgustda Turkiya (Chorum)da tug'ilgan. U o'z ijodini 1966-yildan buyon davom ettirib kelmoqda. Bugungi kunga qadar Qozonchi 15dan ortiq ilmiy tadqiqotlar qilgan. Ko'plab mashhur asarlari mavjud, jumladan, «Saodat asri qissalari» payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning hayotiga bag'ishlangan, Ul Zoti muborakning tug'ilishidan vafot etgunlariga qadar bo'lgan barcha voqealarni qamrab olgan. Adibning «Qaynona», «O'gay ona», «Vijdon uyg'onmoqda», «So'nggi bo'ron» kabi romanlari, ko'plab qissalari ham mavjud.

Bugun Siz azizlar bilan muallifning « O'gay ona » romani haqida fikr yuritamiz. Siz bu asarni, albatta, o'qib chiqishingiz kerak. Nega deysizmi? Buning javobini quyidagicha:

Avvalo, asarning kompozitsiyasi (lotincha «tuzib chiqish, tartibga solish» — badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning ma'lum bir g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi me'zoni va muvofiqligi) haqida o'rganib olsak.

«O'gay ona» epik turning roman janriga mansub. Roman ekspozitsiyasi (lotincha «tushuntirish» — syujetning kirish qismi) quyidagicha boshlanadi :

«Quyoshni bahorning boshi va kuzning aadog'ida har qachongidan ko'ra qattiqroq, ko'proq suyishimizni ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. Odamlar ilk bahor quyoshini askarlikdan qaytgan o'g'lini yoki g'urbatga uzotilgan, ya'ni uzoqqa kelin bo'lib tushgan qizini kutib olgan ota-onasini kabi qarshilardilar.

Kuzgi quyoshni esa bamisoli bayram ta'tilida kelgan mehmon — loaqal yana bir kunga qolishi istalgan suyukli farzand...»

Asar ekspozitsiyasi yuqorida ko'rganimizdek, peyzaj (tabiat tasviri) bilan boshlanadi. Asardagi obrazlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

- bosh obraz : Fotima xonim ;
- yordamchi obraz : Xayriya, Saniha, Ismoil, Husayn, Yilmaz, Odilbek, Odila ;
- epizodik obrazlar : Erdolbek, Mahmudbek, Samohatxonim

Asarning tuguni deb tashqarida o'ynayotgan bolalarga qo'shilmasdan, bir chekkada ularni tomosha qilib turgan ikki bola : biri sovuqqotganidan qo'lini qo'ltilqlariga suqib olgan, ko'rinishidan qarovsizligi bilinib turgan olti yoshlardagi zaifgina o'g'il bola ; ikkinchisi go'zal kiyimlar kiygan, toza qiyofali uch yoshlardagi qizaloq. Odamni o'yantiradigan narsa aynan shu qarovsiz bola bu aslzodalardek kiyangan qizaloqqa qarab turish uchun tayinlangan. Qizaloqqa ko'z-quloq bo'lish uchun bu boladan boshqa «tuzukroq» bola yo'qimi? «Aslzoda»ning onasi bu «shumshuk» yigitchani taniydimi, o'z farzandini nahotki mana shu yigitchaga ishonib topshirgan bo'lsa...?

Voqaealar rivoji shunday, «shumshuk» yigitcha — Ismoilning onasi bundan bir necha yil avval vafot etgan. Otasi boshqa ayolga — Saniha xonimiga uylangan. Ularning uch yoshli qizchasi bor. Saniha xonim hech qachon Ismoilga yaxshi gapirmaydi, doim uni xo'rlab ish buyurishdan nariga o'tmaydi. Shu kuni ham «qizaloqqa yaxshi qarmading» deb uni rosa urishdi. Adib «Vijdon uyg'onadi» asarida shunday deb yozadi : «Ichida insoniylik ongiga ega bo'lganlar o'zganing iffati haqida qayg'urmasdan iloji yo'q. Bu g'amxo'rlikni his etmagan, o'zini sharaf maydonining yagona qahramoni, degan ishonch bilan ish tutgan odam... Haqiqiy yovuz odam shu». Yovuz inson Sanihaxonim bo'lsa, insoniylik ongiga ega bo'lgan inson Fotimadir. Ismoilning baxtiga Fotimadek qo'shnisi bor. Fotima mehribon, taqvoli, din-u diyonatli yosh qiz, hali turmushga chiqmagan. Keyinchalik u ayoli vafot etgan Odilbek ismli ikki farzandli kishiga o'z xohishi bilan turmushga chiqadi. Fotima hech qanday g'arazli niyatda Odilbek bilan turmush qurmoydi. U ikki norasidaga rahmi kelgani uchungina oila quradi. O'gay ona degani faqat azoblaydigan, beshafqat, bemehr degani emasligini isbotlaydi. Odilbekning farzandlarining ismi Husayn hamda Odila bo'ladi, so'ng ular yana bir Samiha ismli qiz farzandli bo'ladilar. Husayn maktabga boradi. Husaynning

maktabdagi Yilmaz ismli do'sti ham xuddi Ismoil kabi o'gay ona qo'lida ming azob bilan yashayotgan bo'ladi. Fotima xonim unga ham mehribonlik ko'rsatadi.

Asarning yechimi shunday, keyinchalik ular voyaga yetib ulg'ayganlaridan so'ng Ismoil bilan Odila hamda Yilmaz bilan Samiha tur mush quradi. Shunday qilib Fotima xonim to'rtta yetim boladan mehr-muhabbatini ayamay, o'z farzandiday bag'riga bosadi.

Asardagi xarakterlararo konflikga Fotima xonim va Saniha xonim o'rtasidagi hamda Fotima xonim va Sodiyaxonim o'rtasidagi qarama-qarshi xususiyatlarni misol keltiradigan bo'lsak, ichki konfliktga esa bolakay Ismoilning otasini (onasining qabridan boshqa o'kinadigan yeri va kimsasi bo'lman bolasini bag'riga bosib ho'ng-ho'ng yig'ladi) misol qilib keltirishimiz mumkin. Asarning kulminatsiyasi ham aynan shu joyda yuzaga chiqadi. Ismoil o'gay onasidan bezib uydan chiqqan va oradan ancha vaqt o'tganiga qaramay, uyga qaytmagan edi. «... Og'lini hadeb ko'ravermagach, Fotiha o'qib kelish uchun mar huma xotinining qabri tomon yo'naldi... g'alati butaga ko'zi tushdi. Butaga yaqinlashib shoxni ko'rish uchun egilishi bilan hayratdan dong qotdi. Ko'zlar kosasidan chiqquday bo'lib buta shoxini chetga surdi. Buta tagida Ismoilning zaif gavdasi ko'rindi...»

Asarning badiiy g'oyasiga to'xtaladigan bo'lsak, adib bu asari bilan o'gay ona degani faqat yetim bolalarni urib, urishib, azoblaydigan degani emasligini, o'gay ona deganda Azroil kabi beshafqat maxluqot (yaratiq)ni tushunish noto'g'ri ekanini ko'rsatmoqda. Haqiqatni tan olish kerak, yuqoridagi kabi o'gay onalar atrofimizda ko'plab topiladi, lekin ularning hammasi ham Sanihaxonim(Ismoilning o'gay onasi) va Sodiyaxonim (Yilmazning onasi) kabi emas, ba'zan Fotimaxonimday olivjanob fazilat egasi bo'lishi ham mumkin. Kishi o'ziga ravo ko'r gan narsasini o'zgaga ham ravo ko'rishi kerak. U o'ziga biror narsani ravo ko'rmadimi, demak o'zgalarga ham ravo ko'rmasligi kerak. Zero adib «Hijrat uyida tong — tug'ilish » asarida shunday yozadi : «Sizlardan birortangiz o'zi uchun xohlagan narsani mo'min birodariga ham xohlamagunicha, iyomon keltirmaydi». Bolalarga qanday munosabatda bo'lish bu insonning o'ziga, vijdoniga bog'liq narsa. Lekin afsuski, adib yozganidek, vijdонни isloh qilishga hukumat ham ojiz... Har insonning boshiga bittadan nazoratchi qo'yolmaydi... Qalban Haqqa bog'langan, yomonlikdan yuz o'girgan insonlarda boshqalarda uchramaydigan nurli vijdon bo'ladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytganidekk, insonda bir a'zo borki, u sog' bo'lsa, barcha a'zolar sog', u nosog' bo'lsa, barcha a'zolar nosog' bo'ladi. Bu — qalbdir. Aynan anashu qalb, vijdon uyg'onsa, pok bo'lsa, vijdon egasi uchun mukofot ham u, jazo ham u bo'ladi. Ya'ni biror ayb ish qilsa, egasini malomat qiladi. Bunday vijdonga erishmoq uchun inson, avvalo, qalbini to'g'ri tarbiya qilishi kerak. Qalbi to'g'ri tarbiya topgan inson hech qachon insonlarga o'gay deb, yoki boy-kambag'al deb qaramaydi. U barchaga inson deb, Allohning yaratgan bandasi deb qaraydi. Saniha xonim ham, Sodiya xonim ham aynan shu qalbini to'g'ri tarbiya

qilmagani, Allojni tanimagani, bilmagani uchungina bolalarga azob bergen, ularning o'gay ekanliklarini yuzlariga solgan edi. Inson bilan hayvonning farqi nimada ekanini bilasizmi? Inson bilan hayvonning farqi aynan iymonda. O'rgatsangiz, to'ti ham nutq qilishi mumkin, yeish, ichish hayvonlarga ham xos. Lekin iymon faqat insonlargagina xosdir. Musulmonkishi hech qachon insonni insondan ajratmaydi

Koshki barcha o'gay onalar ko'rgazmaga bo'lsa-da, yaxshilik qilsalar !

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. L. Qozonchi. O'gay ona. 1970
2. D. Qur'onov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. : Navoiy universiteti, 2018
3. Sh. Sariyev. Adabiyot : mukammal qo'llanma. Toshkent. : Regbooks, 2020
4. N. Karimov va boshq. Adabiyot (9- sinf darslik). — Toshkent. : Ma'naviyat, 2002. — 234-bet.
5. N. Karimov va boshq. Adabiyot (11-sinf darslik). — Toshkent. : O'qituvchi, 2004. — 86-bet.
6. S. Ahmedov va boshq. Adabiyot. (5-sinf darslik). — Toshkent. : Sharq, 2007. — 346-bet.
7. Q. Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (7-sinf darslik). — T. : Sharq, 2017. — 167-bet